

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 18 081,1 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 17 873,9 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 158,9 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 48,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (3 167,6 mlrd so'm), Sherobod (1 693,8 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (1 681,3 mlrd so'm) va Qumqo'rg'on (1 532,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qiziriq (719,5 mlrd so'm), Bandixon (615,9 mlrd so'm) tumanlarini va Termiz shahrini (83,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Surxondaryo viloyati	18 081,1	102,6
Termiz shahri	83,4	103,1
Oltinsoy tumani	779,4	104,1
Angor tumani	1 226,9	104,0
Bandixon tumani	615,9	101,8
Boysun tumani	849,4	103,3
Muzrabot tumani	1 375,3	94,7
Denov tumani	3 167,6	101,0
Jarqo'rg'on tumani	1 681,3	102,2
Qumqo'rg'on tumani	1 532,1	104,1
Qiziriq tumani	719,5	130,2
Sariosiyo tumani	1 167,3	103,6
Termiz tumani	781,2	100,2
Uzun tumani	1 196,1	102,8
Sherobod tumani	1 693,8	101,8
Sho'rchi tumani	1 211,9	100,7

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (130,2 %), Oltinsoy (104,1%), Qumqo'rg'on (104,1 %), Angor (104,0%), Sariosiyo (103,6 %), Boysun (103,3 %), va Termiz shahrida (103,1 %) qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Muzrabot (94,7 %), Termiz (100,2 %), Sho'rchi (100,7 %), Denov (101,0 %), Bandixon (101,8 %), Sherobod (101,8 %) va Jarqo'rg'on (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 17 731,1 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, shu jumladan, chorvachilik mahsulotlari 9 362,9 mlrd so'mni (104,0 %), dehqonchilik mahsulotlari 8 368,2 mlrd so'mni (101,2 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (3 130,8 mlrd so'm), Sherobod (1 674,2 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (1 666,8 mlrd so'm) va Qumqo'rg'on (1 520,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (77,5 mlrd so'm), Bandixon (611,4 mlrd so'm) va Qiziriq (707,7 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (128,8 %), Qumqo'rg'on va Angor (104,1 %), Oltinsoy (104,0 %), Sariosiyo (103,6 %), Boysun (103,4 %) tumanlarida, Termiz shahrida (103,3 %) hamda Uzun (102,8 %) tumanlarida qayd etildi. Muzrabot (95,1 %), Termiz (100,2 %) va Sho'rchi (100,6 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,6 % i fermer xo'jaliklariga, 5,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (1 777,1 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (916,1 mlrd so'm), Uzun (752,0 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (721,9 mlrd so'm) va Muzrabot (703,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (53,9 mlrd so'm), Oltinsoy (302,0 mlrd so'm), Bandixon (319,2 mlrd so'm) va Termiz tumanlarini (384,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot (108,7 %), Qumqo'rg'on (107,2 %), Oltinsoy (106,0 %), Jarqo'rg'on (105,1 %) va Sherobod (104,7 %) tumanlarida qayd etildi. Qiziriq (101,2 %), Uzun (101,5 %), Sho'rchi (101,5 %) va Bandixon (101,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 97,4 ming tonna go'sht, 480,7 ming tonna sut, 296,1 mln dona tuxum, 1 455,0 tonna qirqib olingan jun, 9 490 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 1854,6 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, sog'ib olingan sut – 103,3 % ni, olingan tuxum – 102,9 % ni, qirqib olingan jun – 103,9 % ni, olingan qorako'l teri – 101,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 104,7 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 3,4 % i fermer xo'jaliklari, 95,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	97,4	104,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,1	112,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	88,4	103,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,9	116,9
Sut, ming tonna	480,7	103,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16,5	104,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	460,0	103,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,2	110,7
Tuxum, mln. dona	296,1	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,2	104,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	144,3	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	128,6	103,3
Jun, tonna	1 455	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	296,0	107,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 094,0	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	65,0	122,6
Qorako'l teri, ming dona	9,5	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,6	104,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,7	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,2	100,9
Baliq, tonna	1 854,6	104,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 293,3	104,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	41,8	107,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	519,5	104,7

Shu bilan birga, olingan tuxumning 7,9 % i fermer xo'jaliklariga, 48,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 43,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 20,3 % i fermer xo'jaliklari, 75,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 4,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 17,1 % i fermer xo'jaliklariga, 49,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 33,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 69,7 % i fermer xo'jaliklariga, 2,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Surxondaryo viloyati	97 379,0	480 687,0	296 117,0
Termiz shahri	520,6	2 892,6	4 100,3
Oltinsoy tumani	3 119,2	16 420,2	3 920,0
Angor tumani	5 529,9	26 106,9	16 115,8
Bandixon tumani	3 241,7	18 075,3	3 929,1
Boysun tumani	7 006,1	21 600,2	11 040,7
Muzrabot tumani	7 292,2	35 910,8	25 684,1
Denov tumani	18 534,1	91 871,5	48 799,7
Jarqo'rg'on tumani	8 838,4	52 158,6	46 467,1
Qumqo'rg'on tumani	7 627,5	36 530,0	15 929,0
Qiziriq tumani	4 254,0	18 326,6	6 784,3
Sariosiyo tumani	6 926,0	27 382,5	24 668,1
Termiz tumani	3 965,4	15 325,8	48 021,0
Uzun tumani	8 231,5	35 268,4	15 953,1
Sherobod tumani	7 254,5	36 466,9	15 721,5
Sho'rchi tumani	5 037,9	46 350,7	8 983,2

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (1 353,7 mlrd so'm), Sherobod (977,5 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (798,9 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (750,7 mlrd so'm) va Angor (680,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (23,7 mlrd so'm), Boysun (179,6 mlrd so'm) va Bandixon (292,2 mlrd so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (172,9 %), Uzun (105,1 %), Angor (103,9 %) va Oltinsoy (103,0 %) tumanlarida qayd etildi. Muzarabot (85,9 %), Termiz (97,1 %), Denov (98,9 %), Jarqo'rg'on va Sho'rchi (99,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan jami don va dukkakli don hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	690 991,0	100,8
Termiz shahri	235,6	101,7
Oltinsoy tumani	26 893,8	100,8
Angor tumani	54 458,3	100,7
Bandixon tumani	31 766,0	106,5
Boysun tumani	3 904,7	89,9
Muzrabot tumani	88 272,7	74,9
Denov tumani	84 046,3	98,5
Jarqo'rg'on tumani	71 630,1	95,4
Qumqo'rg'on tumani	63 435,9	101,4
Qiziriq tumani	47 382,7	5,5 m.
Sariosiyo tumani	21 330,9	95,4
Termiz tumani	24 787,7	106,1
Uzun tumani	26 345,6	98,5
Sherobod tumani	95 448,8	100,2
Sho'rchi tumani	51 051,9	95,3

Yetishtirilgan jami don va dukkakli don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod (13,8 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Muzrabot (12,8 %), Denov (12,1 %), Jarqo'rg'on (10,4 %), Qumqo'rg'on (9,2 %), Angor (7,9 %) va Sho'rchi (7,4 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Boysun (0,6 %) va Sariosiyo tumanlarida (3,1 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot (5,5 b. ko'p), Bandixon (106,5 %), Termiz (106,1 %) tumanlarida, Termiz shahrida (101,7 %), Qumqo'rg'on (100,8 %) va Oltinsoy (100,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	247 469,0	103,5
Termiz shahri	687,3	120,4
Oltinsoy tumani	18 435,2	100,5
Angor tumani	17 880,1	103,8
Bandixon tumani	5 606,6	102,4
Boysun tumani	5 412,5	102,7
Muzrabot tumani	8 861,9	103,8
Denov tumani	44 190,0	100,3
Jarqo'rg'on tumani	20 719,2	103,3
Qumqo'rg'on tumani	31 853,7	101,3
Qiziriq tumani	4 400,7	100,5
Sariosiyo tumani	14 838,5	103,4
Termiz tumani	3 483,6	104,7
Uzun tumani	19 663,8	105,2
Sherobod tumani	21 728,4	103,3
Sho'rchi tumani	29 707,5	113,1

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (17,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qumqo'rg'on (12,9 %), Sho'rchi (12,0 %), Sherobod (8,8 %), Jarqo'rg'on (8,4 %), Uzun (7,9 %), Oltinsoy (7,4 %) va Angor tumanlarida (7,2 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Boysun (2,2 %) va Bandixon tumanlarida (2,3 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (120,4 %), Sho'rchi (113,1 %) Uzun (105,2 %), Termiz (104,7 %), Angor va Muzrabot tumanlarida (103,8 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	719 683,0	103,9
Termiz shahri	2 940,4	104,4
Oltinsoy tumani	41 864,3	106,7
Angor tumani	62 555,9	109,6
Bandixon tumani	23 181,4	103,0
Boysun tumani	17 156,2	101,4
Muzrabot tumani	46 145,1	105,9
Denov tumani	125 430,1	100,8
Jarqo'rg'on tumani	63 914,0	106,2
Qumqo'rg'on tumani	72 207,4	105,2
Qiziriq tumani	21 731,4	101,2
Sariosiyo tumani	54 516,4	105,0
Termiz tumani	38 039,8	94,8
Uzun tumani	37 343,1	110,5
Sherobod tumani	68 621,2	101,5
Sho'rchi tumani	44 036,3	104,1

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (17,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qumqo'rg'on (10,0 %), Sherobod (9,5 %), Jarqo'rg'on (8,9 %), Angor (8,7 %) va Sariosiyo (7,6 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,4 %), Boysun (2,4 %) va Qiziriq tumanlarida (3,0 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uzun (110,5 %), Angor (109,6 %), Oltinsoy (106,7 %), Jarqo'rg'on (106,2 %), Muzrabot (105,9 %), Qumqo'rg'on (105,2 %) va Sariosiyo tumanlarida (105,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	74 447,0	106,0
Termiz shahri	68,9	103,6
Oltinsoy tumani	3 879,7	102,6
Angor tumani	10 242,7	105,3
Bandixon tumani	7 164,6	106,0
Boysun tumani	323,1	102,2
Muzrabot tumani	5 559,9	107,8
Denov tumani	8 695,3	101,1
Jarqo'rg'on tumani	7 879,4	102,5
Qumqo'rg'on tumani	9 177,9	105,8
Qiziriq tumani	7 523,8	102,1
Sariosiyo tumani	216,5	101,2
Termiz tumani	2 837,3	140,4
Uzun tumani	1 583,2	106,0
Sherobod tumani	7308	111,9
Sho'rchi tumani	1 986,7	107,4

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Angor tumani (13,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qumqo'rg'on (12,3 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (10,6 %), Qiziriq (10,1 %), Sherobod (9,8 %) va Bandixon tumanlarida (9,6 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,1 %), Sarosiyo (0,3 %) va Boysun tumanlarida (0,4 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz (140,4 %), Sherobod (111,9 %), Muzrabot (107,8 %), Sho'rchi (107,4 %), Bandixon va Uzun tumanlarida (106,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan mevalar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	96 144,0	105,1
Termiz shahri	308,3	89,1
Oltinsoy tumani	6 323,3	104,0
Angor tumani	5 718,5	103,9
Bandixon tumani	2 368,0	104,4
Boysun tumani	6 360,0	103,2
Muzrabot tumani	5 716,0	104,3
Denov tumani	15 928,1	104,4
Jarqo'rg'on tumani	6 490,4	102,9
Qumqo'rg'on tumani	5 625,8	106,3
Qiziriq tumani	1 843,3	109,1
Sariosiyo tumani	8 820,8	105,1
Termiz tumani	5 522,1	105,8
Uzun tumani	3 208,5	103,4
Sherobod tumani	17 760,1	105,8
Sho'rchi tumani	4 150,8	116,1

Yetishtirilgan mevalar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (18,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Denov (16,6 %), Sariosiyo (9,2 %) Jarqo'rg'on (6,8 %), Oltinsoy va Boysun tumanlarida (6,6 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Qiziriq (1,9 %) va Bandixon tumanlarida (2,5 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sho'rchi (116,1 %), Qiziriq (109,1 %), Qumqo'rg'on (106,3 %), Sherobod va Termiz tumanlarida (105,8 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	15 653,0	101,8
Termiz shahri	10,8	101,9
Oltinsoy tumani	2 381,2	100,3
Angor tumani	1 575,0	100,9
Bandixon tumani	144,9	101,3
Boysun tumani	8,9	101,1
Muzrabot tumani	1 116,3	104,3
Denov tumani	5 436,8	103,0
Jarqo'rg'on tumani	1 550,5	100,9
Qumqo'rg'on tumani	1 270,6	100,2
Qiziriq tumani	159,3	102,2
Sariosiyo tumani	337,8	102,6
Termiz tumani	598,7	102,4
Uzun tumani	459,4	100,6
Sherobod tumani	474,4	101,4
Sho'rchi tumani	128,4	101,7

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (34,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Oltinsoy (15,2 %), Angor (10,1 %), Jarqo'rg'on (9,9 %), Qumqo'rg'on (8,1 %) va Muzrabot tumanlarida (7,1 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida va Boysun tumanida (0,1 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot (104,3 %), Denov (103,0 %), Sariosiyo (102,6 %), Termiz (102,4 %) va Qiziriq tumanlarida (102,2 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 024,4 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 364,1 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 634,3 ming boshga (2,3 % ga ko'p), parrandalar 5 390, 7 ming boshga (0,1 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	1 024,4	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	70,7	100,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	930,1	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,6	107,3
Shundan sigirlar	364,1	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,2	102,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	331,8	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,1	108,9
Qo'y va echkilar	2 634,3	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	535,4	100,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 010,4	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	88,5	111,0
Otlar	16,6	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,1	101,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10,8	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,7	117,8
Parrandalar	5 390,7	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	594,2	78,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 764,6	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 031,9	107,2

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,2 % i fermer xo'jaliklariga, 91,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 20,3 % i fermer xo'jaliklariga, 76,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 11,0 % i fermer xo'jaliklariga, 51,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Surxondaryo viloyati	1 024,4	2 634,3	5 390,7
Termiz shahri	10,3	22,3	50,9
Oltinsoy tumani	57,4	112,8	158,0
Angor tumani	46,3	90,8	279,6
Bandixon tumani	32,9	78,4	90,2
Boysun tumani	52,7	403,3	252,6
Muzrabot tumani	60,1	60,6	478,3
Denov tumani	157,4	235,9	798,3
Jarqo'rg'on tumani	73,2	268,6	601,6
Qumqo'rg'on tumani	118,1	286,9	456,9
Qiziriq tumani	42,6	53,1	115,7
Sariosiyo tumani	83,5	219,0	452,0
Termiz tumani	41,6	103,8	705,8
Uzun tumani	78,6	186,9	296,8
Sherobod tumani	74,8	320,3	308,2
Sho'rchi tumani	94,9	191,6	345,8

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi– sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari– hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni– xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish– so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish– yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish– barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

55 451-80-00 (7610)
